

**BADIIY MATNLARDA SUKUTNING IFODALANISHI****Raxmonova Marjona Jinaydullo qizi**

mrsrakhmonova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10628417>**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 01-February 2024 yil

Ma'qullandi: 04- February 2023 yil

Nashr qilindi: 07- February 2023 yil

**KEY WORDS***badiiy matn, muallif nutqi, sukut, iboralar, sukunat va b.***ABSTRACT**

*Badiiy asar mutolaasi unda ishtirok etgan qahramon va muallif nutqi orasidagi farqlarni aks ettirishga yordam beradi. Sababi, qahramonlar va muallif nutqi orasidagi tafovut hamisha sezilib turadi. Ushbu maqolada sukut holati badiiy matnlarga tayangan holda tahlil qilingan bo'lib, badiiy matnlar tarkibidagi muallif va qahramonlar nutqi orqali sukut holatlarining ifodalanishlari hamda matndagi vazifasini ko'rib chiqamiz.*

Sukunat ham nutq kabi tilda kommunikativ xususiyatga ega, chunki u so'zlovchining xohishi natijasida yuzaga keladi va xabar berish, his-tuyg'ularni yetkazish, signalning navbatini almashtirish, murojaat qiluvchini faollashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Og'zaki sukunat nutq bilan bir qatorda, hayotning barcha sohalarida lingvistik funksiyalarni bajarish uchun ishlatiladi, shuningdek, turli xil yozma matnlarda qo'llaniladi. Badiiy asarlarda ham qahramonlarning sukut saqlashi juda muhim detallardan biri hisoblanadi. Sukut holatlari shunchaki yozib o'tilmaydi, albatta. Har bir holat muallif tomonidan izohlanib boriladi. Aksariyat badiiy matnlarni kuzatadigan bo'lsak, sukut sholati faqatgina "sukut saqlamoq" yoki "sukut qilmoq" jumalari bilan ifodalanib qolmaydi. Aksincha vaziyatdan kelib chiqqan holatda "tin olmoq", "sas-sadosiz", "og'ir sukunat", "tikilib qolmoq", "unsiz", "termulib qolmoq", "so'zsiz qolmoq", "qotib qolmoq", "jim bo'lmoq", "sukunat cho'kmoq", "tiq etgan tovush eshitilmasligi", "jim", "sado chiqmaslik", "gap-so'zsiz", "suv quygandek jimjit", "tili kalimaga kelmaslik", "haykaldek qotmoq", "ko'z tikib qolmoq", "tosh kabi qotmoq" va shu kabi boshqa jumalar bilan ifodalanganligining guvohi bo'lamiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.**

Quyidagi sukut holatining muallif nutqida ifodalanishini bir necha misollar orqali ko'rib chiqamiz hamda tahlil qilamiz:

-Qo'shni hujra sohibi kirib, unga murojaat etganda, garanglanib, telba ko'zlarini uzoq tikib qoldi.

Ushbu parchada qahramondagi sukut holati "ko'zlarini uzoq tikib qolmoq" jumlasiorqali ifodalangan va bu sukut qahramonning haratda qolganligini anglatib kelmoqda.

-Go'yo masalani oxirda yolg'iz o'zi yechib berishga ishongan odamday, "churq" etmasdan, donishmand bir tur bilan munozaraga quloq soldi. Lekin majlis yangi-yangi masalalarga o'tdi. Mavlono Shahobiddin labini ham qimirlata olmadi. [Oybek.Navoiy, 2016:136]

Parchadagi "churq etmaslik" iborasi ham sukut holatini ifodalagan bo'lib, unda qahramon suhbatdoshini mensimaganidan va o'zga haddan tashqari yuqori baho berganligi sababli ham jim turganligini anglatib kelmoqda. "Labini ham qimirlata olmaslik" iborasi esa qahramonning ayni vaziyatga nisbatan ojiz ekanligini bildirmoqda.

Mudarris domla ham mening ketishimga lom-mim demay rozi bo'libdilar.

[M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari]

Kundoshlarimning jabr-zulmiga chidamadim. Erim uch taloq qo'yganda ham, og'iz ochib, lom-mim demadim. [J. Sharipov, Xorazm]

Barchammizga ma'lumki, arab alifbosidagi "lom" tovushini talaffuz qilganimizda og'zimiz ma'lum darajada ochiladi. "Mim" ni talaffuz qilganimizda esa og'iz yopiladi. "Lom-mim demaslik" esa qahramonning xatto og'zini ochib yopmasdan, o'z holatini o'zgartirmasdan jim turganligini bildirib kelmoqda.

Bir oz orqamni o'girib, indamay yotdim, u ham churq etmadi. Sabrim chidamadi, qayrilib qaradim. [Oydin, Hikoyalar]

"Churq etmaslik" iborasi ham sukut holatini anglatib, qahramonning befarqligi yoki vaziyatga nisbatan norozi kayfiyatda emasligini anglatadi.

O'rtaga noxush sukunat cho'kdi. [Sharq yulduzi]

Sukunatni yana otaning tovushi buzdi:

-Hech narsa deyolmaysan! Qaysi yuz bilan gapirasan?! [Yoshlik]

Sukut saqlamoq hamma vaqt ham aqllilikdan darak beravermaydi, ammo bilganingni shaqillab gapira berish - o'z obro'yingni paqirlab to'kish demak. [Mirmuhsin, Umid]

"Sukunat" tushunchasi, asosan, salbiy ma'no anglatadi. Badiiy matnlarda ham tubda zimistonlik bilan sukunat atrofni qoplash holatlar ko'plab tasvirlanadi. Shuningdek, aza bo'lgan xonadonda ham sukunat hukm surib qolishini qator badiiy matnlarda uchratishimiz mumkin.

U nimaiki gapirmasin, kim chakagini deyarli ikkiga ayirib tashlagani haqida lom-mim demas, nazarimda, hikoyasining chiroyini buzgisi kelmasdi... [Gabriel Garsia Marques, Kulmaydigan odam]

Navoiyning uyi suv quygandek jimjit, hamma oyoq uchida yurar, bir-birlari bilan shivirlashib gapirishar edi. [M. Osim, Sehrli so'z.2017:67]

"Suv quygandek jimjit" iborasi ham badiiy matnlarda ijobiy ma'noda qo'llaniladi. M. Osim asaridan olindan parchada ham salbiylik bo'yog'i sezilmaydi.

Aka-uka bir qancha vaqt so'zsiz o'tirdi. Berdi polvon deraza pardasi ustidagi qizil gardishli ramkaga termulib qoldi. [A.Suyunov, Yo'qchi. 2013]

#### **NATIJALAR.**

Muallif nutqida sukut holati faqatgina sukut saqlamoq jumlasini bilan emas, balki bir qator boshqa frazemalar bilan ham ifodalanishi mumkin. Og'izda mum tishlamoq (xohlaganda ham gapira olmaslik), og'zida talqon solmoq (so'zlashi uchun yo'l qo'ymaydigan to'siqning borligi), og'zida qatq ivitmoq va boshqa shu kabi frazemalarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlarning ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchini zeriktirmaydi.

#### **MUHOKAMA.**

Izlanishlar natijasida sukut holatini ifodalab keluvchi quyidagi iboralarni tahlil qildik: mum tishlamoq - gapirishni xohlamaslik; og'ziga talqon solmoq - xohlaganda ham gapira olmaslik (chunki inson og'zida talqon bor vaqtda og'zini qimirlata olmaydi, aks holda talqonni

yutib yuborishi mumkin. Talqon odatda og'izda ushlab turiladi); og'zida qatiq ivitmoq – barchamizga ma'lumki, sutdan qatiq tayyorlash jarayonida unga biroz qatiqni aralashtirib o'rab qo'yiladi va toki qatiq holiga kelguncha, ya'ni ivigunicha o'rnidan qimirlatib bo'lmaydi, aks holda qatiq ivimay qoladi. Ushbu iborada ham majburiy sukut holati ifodalangan; lom-mim demaslik - arab alifbosidagi lom (ل) – tovushi talaffuz qilinganda og'iz ochiladi, mim (م) tovushi talaffuz qilinganda esa og'iz yopiladi. Bunda inson shu darajadagi, hatto og'zini ochib – yopishga ham imkon yo'q;

Tili tanglayiga yopishib qolmoq – bunda ham xohlaganda ham gapira olmaslik ma'nosini anglatib kelmoqda;

#### **XULOSA.**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, biz oddiygina deb o'ylagan sukut saqlash badiiy matnlarda qahramonlar xarakterini ochib berish uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlarning ayni vaziyatga bo'lgan munosabatini ham sukut orqali ko'ra olishimiz mumkin. Shu bilan birga badiiy matnlarda sukut holati bir necha jumlar orqali ifodalanadi; ushbu bobda sukut saqlash ma'nosinig badiiy matnlarda 43 ta jumla va iboralar orqali ifodalanganini ko'rib chiqdik. Bulardan 9 o'rinda sukut holati iboralar bilan ifodalangan. O'z o'rnida bu iboralar sukutning sabablarini ham izohlab keladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Acheson D. J., Hamidi M., Binder J. R., and Postle B. R. A common neural substrate for language production and verbal working memory. – Washington, 2010.
2. Agnati L. F., Barlow P., Ghidoni R., Borroto-Escuela D. O., Guidolin D., and Fuxe K. Possible genetic and epigenetic links between human inner speech, schizophrenia and altruism. – Washington, 2012.
3. Oybek. Navoiy. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: 2020.
5. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari. T.:1926.
6. M. Osim, Sehrli so'z. T.:2017.